

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 372 sahifa.
2025-yil, 18-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	



KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA

Ilyasova Barno Axmadovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada korxona investitsion faolligini oshirish va samarali boshqarish yo'nalishlari ilmiy tadqiqiga yangicha yondoshuvning zarurligi, uning sabablari va omillari yoritilgan, davlat investitsiya siyosati hamda hududiy rivojlanish siyosati modernizatsiyasining muhim omili va muvaffaqiyat garovlaridan biri sifatida korxona investitsion faolligini oshirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, investitsion muhit jozibadorligini baholash uslubiyoti, davlat investitsiya siyosati, hududiy iqtisodiyot, hududiy rivojlanish dasturlari, investitsion salohiyatni boshqarish.

Abstract. The article covers the need for a new approach to the scientific study of the areas of increasing and effective management of Enterprise Investment Activity, its causes and factors, explores the issues of increasing enterprise investment activity as an important factor in the modernization of state investment policy and Territorial Development Policy and as one of the guarantees of sustainability.

Keywords: investments, investment climate, methodology for assessing the attractiveness of the investment climate, investment policy of the state, regional economy, regional development programs, investment potential management.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость нового подхода к научному изучению направлений повышения эффективности управления инвестиционной активностью предприятий, ее причин и факторов, исследуются вопросы повышения инвестиционной активности предприятий как важного фактора модернизации государственной инвестиционной политики и политики территориального развития и как одной из гарантий устойчивого развития.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, методика оценки привлекательности инвестиционного климата, инвестиционная политика государства, региональная экономика, программы развития регионов, управление инвестиционным потенциалом.

KIRISH

XXI asr boshlarida, xorijiy investitsiyalar oqimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida jahon xo'jaligida muhim o'rin tutdi. Erkin iqtisodiy hududlarning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, ular xalqaro tovar almashinuvini faollashtirish, investitsiyalarni safarbar etish, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish evaziga jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashtirish jarayoni investitsion faollikni ta'minlash ahamiyatining o'sishi va maxsus iqtisodiy zonalar ko'rinishidagi yangi hududiy markazlarning shakllanishi investitsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi va istiqbolli infratuzilma loyihalarini jalb qilishda raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Yirik hududiy markazlar hissasiga jahon YalMning 83 foizi, eksportining – 68 foizi, investitsiyalarning 89 foizi to'g'ri kelmoqda [3]. Bu bilan o'z navbatida boshqa hududlar va mamlakatlar ham o'zining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish hamda ularni yaxshilashga qaratilgan alohida siyosat yuritishga intilmoqdalar.

Amalda investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni oshirish bevosita faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab etadi. Bu o'z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotimizga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.



Shu o'rinda, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning «soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatda investitsion faollikni yaxshilashning muhim shartlari» [1] ekanligi haqidagi fikrlarini alohida ta'kidlash lozim.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo'yicha strategik qarash va dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish nuqtai-nazaridan ushbu masalaning metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilishning zarurligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Umuman, O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash va samarali boshqarish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini maxsus, mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida etarli darajada o'rganilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Davlat moliya siyosatida investitsion faollik masalalari J.B.Budvil, N.Grosjan, P.Krugman, A.Lyosh, B.O.Lundval, J.Mansinen, E.Mey, F.Perru, P.Romer, N.I.Berzon, I.S.Bukina, V.K.Burlachkov, I.Yu.Varyash, M.I.Gelvanovskiy, B.V.Gubin, A.S.Jegalova, A.Yu.Laykov, L.N.Lkova, V.D.Milovidov, Ya.M.Mirkin, A.Yu.Mixaylov, V.K.Senchagov, V.V.Simonyan, E.Raynert, X.Richardson, Dj.Fridman, K.Frimen, P.Xagget, T.Xagerstrand, M.Porter, Y.Shumpeter[4; 5; 6; 7] va shu kabi boshqa mintaqaviy rivojlanish nazariyalari mualliflari tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatda investitsion faollikni ta'minlashning iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashtirish sharoitidagi xususiyatlari B.Garrett, G.Jereffi, R.Kaplinski, M.Lorens, P.Maskell, S.Rezenfeld, M.Simaguti, M.Storper, E.Shmits, M.Enrayt kabi olimlarning bu masalalarga oid konsepsiyalari, nazariyalari va amaliy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Ushbu mualliflarning nazariy va uslubiy yondashuvlarida investitsion muhit jozibadorligi faollikning takror ishlab chiqarish jihatlarini o'zida aks ettirgan ishlab chiqarishni tashkil etish hamda investitsion salohiyat shakllanishining funksional asoslari kabi xususiyatlar ustunlik qiladi.

Yaqin xorijiy davlatlarda zamonaviy investitsion boshqaruv nazariyalarini tadqiq qilish investitsion faollikni ta'minlashga oid izlanish jarayonining an'anaviy davlat investitsiya siyosatini o'rganishdan - davlat investitsion menejmenti, davlat investitsion xavfsizligini ta'minlash, davlatning samarali investitsion o'sishi borasidagi zamonaviy fanlarga o'tish bosqichida turganligini tasdiqlaydi. Bularga misol tariqasida O.A.Biyakov, A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev, S.M.Drobishevskiy, V.K.Lomakin, Ya.D.Lisovolik, G.L.Azoev, B.S.Jixarevich, R.Fatxutdinov, Yu.V.Savelev, Ye.A.Kolomak, A.S.Novoselov, S.S.Artobolevskiy, B.M.Grinchel kabi olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin[8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16]. O'zbekistonda investitsion faollikni ta'minlash va samarali boshqarish yo'llarini o'rganish nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar ilk izlanishlar hisoblanadi. Milliy investitsion siyosat va mintaqaviy iqtisodiyot maktabi olimlari M.Abdusalyamov, K.Abirqulov, N.Aimbetov, T.Axmedov, D.G'ozibekov, N.Karimov, Sh.Mustafakulov, N.Haydarov, F.Dodiyev, O.Sabirov, Sh.Imomov, B.Ro'zmetov, A.Sodiqov, A.Soliyev, A.M.Qodirov, A.A.Qayumov, F.T.Egamberdiev[17; 18; 19; 20; 21; 22; 23] va boshqalar erishgan ilmiy natijalar mamlakatimizda investitsion faollikni ta'minlash va samarali boshqarish yo'llarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish masalalari S.S.G'ulomov, A.V.Vaxabov, D.G'ozibekov, N.X.Xaydarov, N.R.Kuziyeva, Sh.G.Yuldoshev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [24; 25; 26; 27]. Bu ishlarda asosan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirishning nazariy jihatlarini, bu jarayondagi moliyaviy-soliq munosabatlari yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solishda investitsion faollik masalalari Sh.B.Imomovning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan [28].

D.D.Rustamova, S.S.Nasretdinov, N.N.Oblamurodovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari tadqiq qilingan[29; 30; 31; 32].

"Investitsion faollik" tushunchasining mohiyatini mualliflar turlicha talqin qilishmoqda.

Xorijiy iqtisodchi-olimlar talqinida bu tushuncha ko'proq "biznes faolligi" tushunchasi bilan ma'nodosh sifatida ko'rsatilmoqda. Jumladan, Dj.D.Deniels va Li.X.Radebaning fikricha, 70-80-yillardagi TMKlar hozirda «biznes faolligi talablariga moslashuv shartlarini to'liq ko'chirib olishga ulgurдилar (environmental scanning)»[33].

Dj.Dounsi G.Elliotning ta'kidlashlaricha «investitsion faollik investitsiyalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir»[34].

Shunday qilib, ko'pchilik xorijiy tadqiqotchilar "investitsion faollik" mazmunini "biznes faolligi" tushunchasi bilan birday ko'rishib, uning mohiyati – kapitalni qo'yishning riskliligi darajasini va aniq ob'ektga investitsiya qilishning jozibadorligi darajasini shakllantiruvchi tashqi shart-sharoitlar majmui sifatida talqin etadilar.

S.Yu.Sivakovaning fikricha, mazkur kategoriyalar xorijiy amaliyotda to'liq sinonim tushunchalar sifatida qo'llaniladi[35].

Taraqqiyot tadqiqotlari Instituti (IDS, University of Sussex) vakillari M.Mur va X.Shmits ushbu tushunchalarning farqlanishi lozimligini ta'kidlashadi va uni asoslovchi omillarni bayon etishadi[36]. Ular fikricha, biznes faolligining (yoki investitsion faollikning) yaxshilanishi biznesni yuritish uchun xarajatlarni kamaytirish imkonini, investitsion faollikning yaxshilanishi esa – kapitalni investitsiyalashdagi risklarni pasaytirish imkonini ko'zda tutadi.

Mahalliy iqtisodchi-olimlarimizdan D.G'ozibekovning fikricha, «investitsion faollik – investorlar uchun yaratilgan, kafolatlangan shart-sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligining asoslari majmuidir» [26]. Sh.Mustafaqulovning ta'kidlashicha, «mamlakatning integral investitsion faolligi – bu mamlakatning xo'jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko'rsatkichlarning umumiy darajasidir» [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi omil bo'lib, barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanib milliy iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar hajmini oshirish talab etiladi.

Mamlakatimizda investorlar uchun ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va proferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda.

Korxonada investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin(1- rasm).



1-rasm. Korxonada investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari

Mamlakatda korxonalar investitsion faolligi ta'minlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni ta'riflaydigan asosiy ko'rsatkichlar (YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning o'sishi sur'atlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish darajasi va hokazolar) ayni vaqtda etarlicha barqaror dinamikaga ega va qulay investitsiya muhitini shakllantirishda salmoqli kafolat hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval. Mamlakatda korxona investitsion faolligi ta'minlanishiga ta'sir etuvchi omillar[25].

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to'lov balansining holati, valyuta pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, ichki bozor sig'iminining kattaligi, inflyatsiya darajasi, YalM, sanoat va qurilish xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari.
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keldigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqaradigan farmonlar, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalarning mavjudligi.
Tabiiy xom ashyo resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg'i energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo'jaligi xomashyosi ishlab chiqarish hajmlari.
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsishlik darajasi xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi.
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosi ishlab chiqarish fondlarining, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati tarkibi, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari. Investitsiya tavakkalchilik darajasi. Ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasining rivojlanishi holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish.
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosat, iqtisodiyotning real sektori korxonalarning foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimi rivojlanish holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mexmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchlilik.
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanishi darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar.

Investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat ichki bozor sig'iminining kattaligi xorijiy investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatishicha, O'zbekistonning ichki bozori iste'mol tovarlar bilan hali to'liq to'yintirilmagan, shu bois aholi yalpi talabining sezilarli qismi import hisobiga qondiriladi.

Kapitalni tashqaridan jalb qilishga yordam beradigan omil xorijiy tadbirkorlar investitsiyalash uchun qulay muhitni shakllantirishga ko'maklashadigan rag'batlar tizimini taklif qilishdir. Respublika qonunchiligi tomonidan mustaqillik yillarida qabul qilingan imtiyozlar va rag'batlar etarli miqdorda bo'lib, investorlar faoliyatining hamma jihatlarini qamrab olgan.

O'zbekiston yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan etarlicha rivojlangan sanoat va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega. Respublikada ko'p tarmoqli sanoat salohiyati mavjudligi tufayli avtomobillar, samolyotlar, transformatorlar va akkumulyatorlar, turli elektrotexnika buyumlari, elektronika, liftlar, gidronasoslar, traktorlar, paxta terish kombaynlarining yangi modifikatsiyalari kabi ilmiy taraqqiyotga asoslangan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil qilishga erishildi.

Respublikaning xorijiy investorlar uchun yuqori jozibadorligining yana bir muhim omili boy resurs bazasining mavjudligidir.

Respublikamizda olib borilayotgan investitsiya siyosatining asosiy maqsadi xo'jalik subyektlarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etish asosida mamlakatimiz investitsiya salohiyatini oshirishdan iborat. Bu siyosat birinchi navbatda, investitsiyalash jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati milliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar va aholining investitsiya faolligini oshirish, respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Islahotlarning dastlabki bosqichida mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan Davlat investitsiya dasturlari ishlab chiqildi va ushbu dasturlarga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi respublikamizda iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat investitsiya siyosatining markaziy masalalaridan biri sifatida investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash maydonga chiqmoqda. Bu sohada – chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha muhim chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan va izchil taraqqiy etayotgan davlatlar (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat raqobatdoshligi, o'zining chegarasi doirasida umumiy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, hududlararo va mintaqalararo integratsiyani chuqurlashtirishning yangi metodlarini qo'llash asosida investitsion muhit jozibadorligiga to'laligicha bog'liqdir.

Shu sababli, korxona investitsion faolligi va unga ta'sir etuvchi yangi omillarni o'rganish hozirgi zamon fanining yangi va murakkab tadqiq predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik bazasi hali etarli darajada tizimlashtirilmagan va u asosan hududiy ishlab chiqarish komplekslari, iqtisodiy rayonlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish konsepsiyalariga asoslanib qolmoqda (2-jadval).

2-jadval. 2022-2027-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosiy ko'rsatkichlari¹

№	Asosiy ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2026	2027
1.	YAIM o'sish sur'ati, foizda	5,7	6,0	6,2	6,4	6,2-6,4	6,2
2.	Aholi jon boshiga YAIM hajmi, Aqsh doll.	2 275	2 496	2 698	2 950	3 055	3 200
3.	Sanoat, o'sish sur'ati foizda	5,3	6,0	7,0	7,6	7,5	7-7,5
4.	Qurilish, o'sish sur'ati, foizda	6,6	6,4	6,3	7,2	7,3	7-7,3
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari o'sish sur'ati, foizda	3,6	4,1	4,0	4,1	4,1	4-4,5
6.	Bozor xizmatlari, o'sish sur'ati, foizda	16,3	13,7	17-20	14,0	14,9	14,5-15,5

Shu bilan bir qatorda, 2025-yil va kelgusi o'rta muddatli davrda ushbu prognozlariga erishishda quyidagi asosiy yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirilishi inobatga olingan. Jumladan:

Birinchidan, mamlakat energetika xavfsizligini va samaradorligini ta'minlash, xususan: energetika tarmog'ini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish;

elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil etish maqsadida tarmoqqa xususiy operatorlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy harakatlarni boshlash;

gaz va elektr energiyasi tariflarini erkinlashtirish bo'yicha boshlangan islohotlarni to'liq yakuniga etkazish; 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiyaning jami iste'moldagi ulushini 40 foizga etkazish.

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish va xususiylashtirish: korporativ boshqaruv sohasini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirish; xususiylashtirishning manzilli dasturiga kiritilgan aksiya paketlar (ulushlar) va ko'chmas mulk obyektlarini sotish;

neft-gaz, kimyo, energetika, transport, bank sohalaridagi yirik korxonalarning aksiya paketlari xalqaro bozorda ommaviy savdolarini, aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini amalga oshirish.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xususan: issiqxona gazlari emissiyasini tartibga solish; mamlakatni 2050-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish; xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish; iqtisodiyot tarmoq va sohalarida energiya tejamkorlikni ta'minlash, energiyani boshqarish tizimini xalqaro standartga o'tkazish.

To'rtinchidan, qishloq va suv xo'jaligida islohotlarni kuchaytirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash ishlarini jadallashtirish, xususan:

qishloq xo'jaligi infratuzilmalari (urug'chilik, texnika va kimyoviy o'g'itlar, ixtisoslashuv bozorlar)ni yaxshilash tadbirlarini tashkil etish va ularni moliyalashtirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosilini sug'urtalash tizimini tashkil etish; daryolar, magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish;

suv sarfini qisqartirishga doir izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish; irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, DXSH mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish.

1 2025-2027 yillar uchun Fiskal Strategiya.// IMV.uz sayti ma'lumotlari .



Beshinchidan, telekommunikatsiya sohasini isloh qilish, xususan:

telekommunikatsiya sohasini erkinlashtirish, mustaqil regulyatorni tashkil etish hamda tadbirkorlarga soha infratuzilmasidan foydalanishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratish;

barcha aholi punktlarini internet bilan to'liq qamrab olish va uning tezligini 2030-yilga qadar 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 5 000 Gbit/s.ga etkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma'lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga etkazish;

xususiy provayderlarga xalqaro internet tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ulanishga ruxsat berish.

Oltinchidan, transport infratuzilmasini rivojlantirish, xususan:

pulli avtomobil yo'llari tizimining (qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish) huquqiy asosini yaratish hamda loyihalashtirish va qurish ishlarini boshlash;

jamoat transporti infratuzilmasini demografik va iqtisodiy o'sish, xususan urbanizatsiya jarayonlaridan kelib chiqib rivojlantirish, sohani erkinlashtirish va xususiy sektorni jalb etish;

temir yo'l sohasini rivojlantirish uchun tegishli huquqiy muhit, tadbirkorlik faoliyati uchun sharoit yaratish;

Buxoro, Urganch va Toshkent xalqaro aeroportlarida DXSH asosida loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy investorlarni jalb qilish.

Yettinchidan, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, xususan:

turizmni rivojlantirishning yangi modeli va "Turistik investor" tizimini joriy qilish, shu jumladan turistlar hisobini yuritishni UNWTO tavsiyalariga moslashtirish;

turizmning yangi turlariga ruxsat berish (geologiya, sanoat va harbiy turizm);

hududlarda tuman markazlarini rivojlantirish, aglomeratsiya va turizm maskanlarini tashkil etish, xizmat ko'rsatish va servis obyektlarini ("service point") barpo etishga qaratilgan master rejalarni ishlab chiqish orqali mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulay muhit yaratish.

Sakkizinchidan, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash, eksportni oshirish, xususan:

tadbirkorlik subyektlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini biznes va aholi uchun soddalashtirish va raqamlashtirish orqali ularning ishonchini mustahkamlash; kichik va o'rta biznes faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish;

aholi bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish, tartibli migratsiyani rivojlantirishda xususiy bandlik agentliklari faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish;

tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha o'zaro hisob-kitob va tovar ayirboshlash tizimini yaxshilash;

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini jadallashtirish bo'yicha amaliy choralari ko'riladi.

Iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini faollashtirishda real sektor korxonalari hamda milliy soha va tarmoqlar tizimi sub'ektlari harakatini bir tomondan muvofiqlashtirishni, ikkinchi tomondan, innovatsiyani amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, innovatsiya jarayonini rivojlantirish uchun sharoit yaratishda manfaatdor bo'lgan tarkiblarning integratsiyasini talab etadi. Bu vazifani bajarish davlatning innovatsion siyosatini amalga oshirish tizimiga yuklatiladi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

– innovatsion tizimni ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga moliyaviy resurslarni jalb etish;

– innovatsion tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish evaziga davlatning eng muhim manfaatlarini ta'minlash, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sharoit yaratish;

– mamlakatda fan va fan sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish, intellektual faoliyatning boshqa turlari uchun kerak bo'lgan kadrlar tayyorlash jarayonini isloh qilish, iqtisodiyotni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlash, uni intensiv rivojlantirish uchun kerak bo'lgan kadrlar bilan ta'minlashning asosini yaratish;

– resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda ustuvor tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish maqsadida ilmiy tashkilotlar tarmog'ini isloh etish;

– yalpi ichki mahsulotning energiya va material sig'imini kamaytirish;

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida korxona investitsion faolligini ta'minlash uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq tendensiyalarni chuqur o'rganish respublikamizda innovatsion muhitni yaxshilash bilan birga, ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion mahsulotlar etkazib berishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi har yili investitsiya dasturlarini, tarmoqlar hamda hududlarni o'rta muddatda rivojlantirish dasturlarini tayyorlaydi. Investitsiya dasturining yakuniy loyihasida hukumat nomi yoki kafolati ostida xorij investitsiyasini jalb qilish bo'yicha takliflar hamda hukumat imzolaydigan, 500 ming AQSh dollaridan yuqori bo'lgan investitsiya loyihalari kiritiladi. Ushbu qismga kirmay qolgan takliflar esa tarmoq va hududlarni rivojlantirish dasturlarida o'z aksini topadi.

Mamlakatimizda korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini hududiy ishlab chiqarish komplekslari, iqtisodiy rayonlashtirish, ishlab

chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish konsepsiyalari tashkil etadi. Bu esa korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlarining innovatsion faoliyatni rag'batlantirish jihatlarini chuqurroq tadqiq etish va uning uslubiyotini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, korxona investitsion faolligini baholash bo'yicha aniq uslubiyot biron-bir xalqaro qonun bilan belgilanmagan, shu bois oxirgi vaqtlarda investitsion faollikka oid ko'rsatkichlarni hisoblash bo'yicha turli uslubiyotlar qo'llanilmoqda.

B.S.Jixarevich, L.E.Limonov, N.B.Jundalarning fikricha, investitsion faollik sarmoyani qo'yishdan tushgan tushumning darajasi orqali aniqlanadi[14].

Shuningdek, Yu.V.Savelev investitsion faollikni aniqlash yuzasidan investitsiya hajmini izohlash, ularning gorizont va vertikal bo'yicha tarkibini tahlil qilishga asoslangan yondoshuvini asoslashga harakat qilgan[15].

Ushbu qarashlar, alohida olingan korxona investitsion faolligining muhim asosi bo'lmish - uning investitsion salohiyatini oshirib borish bilan birday vazifalar qo'yishini to'liq e'tiborga olmaydilar.

Bizning fikrimizcha, korxona investitsion salohiyati – bu korxonaning rivojlanish darajasi bo'lib, unga ko'ra korxona o'zining iqtisodiy salohiyatidan, raqobat ustunliklari va institutsional imkoniyatlaridan samarali foydalanishi hisobiga o'z taraqqiyoti darajasi va sifatining barqaror o'sib borishini ta'minlaydi.

Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, investitsion faollik, investitsion salohiyat, hudud investitsion salohiyat ustunligi hamda hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarish yo'nalishlari haqida aniq tushunchalar ilmiy jihatdan etarlicha yoritilmagan.

Investitsion faollikni ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlarining ilmiy asoslarini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, korporativ investitsion faollik nazariyasi mavzusi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaqin davrdan boshlab chuqur o'rganila boshlandi. Neoklassik va zamonaviy Yevropa maktabi vakillari bo'lgan klassiklarning nazariy qarashlarida iqtisodiy jarayonlardagi investitsion faollik munosabatlari an'anaviy tarzda, ya'ni korporativ omillar va investitsion siyosat yo'nalishlarini hisobga olgan holda tadqiq etilgan. Mavjud nazariy qarashlarga muvofiq ularni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin: a) mikroiqtisodiyot konsepsiyasi nuqtai-nazaridan investitsion faollikni o'rganish; b) tashqi ta'sir omillari nuqtai-nazaridan investitsion faollikni ta'minlash va boshqarish munosabatlarini o'rganish; v) investitsion salohiyat va uni boshqarishning (biznes darajasidagi) mikroiqtisodiy omillari.

Yuqorida keltirilgan barcha yo'nalishlarda korxona investitsion faolligining tashqi omillariga ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Shuni hisobga olgan holda, ta'kidlash lozimki, korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlari bo'yicha mavjud tadqiqot tamoyillari hamda usullarini qayta ko'rib chiqish zarur. Bundan asosiy maqsad esa korxonada mavjud salohiyat, resurslar va iqtisodiy o'sish zaxiralaridan to'liq foydalanishni boshqarishga pragmatik yondoshuvlarni ishlab chiqishdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxona investitsion faolligi – o'rta muddatli istiqbolda boshqariluvchi korporativ moliyaga xos bo'lgan omillar va risklarning majmuidir.

Bizning fikrimizcha, korxona investitsion faolligi "omillari" va "shart-sharoitlari" tushunchalarini farqlash lozim.

Korxona investitsion faolligi omillari bu – aniq umumlashma ko'rsatkichlar bilan ifodalanuvchi korxona iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish intensivligini ta'minlovchi resurslardir.

Korxonada qulay investitsion shart-sharoitlari bu – investitsion jozibadorlik va investitsion faollikka ta'sir etuvchi korxona iqtisodiyotidagi ma'lum voqea-hodisalar yoki uning holatidir.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin: «Korxona investitsion faolligi – korxonaga investitsiyalarning oqimini belgilovchi, ta'minlovchi, kafolatlovchi va investitsiyalardan samarali foydalanish bilan baholanadigan ob'ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy asoslar, vositalar, imkoniyatlar va cheklavlarning yig'indisidir».

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi zamon talablari va real hayotiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlari ilmiy tadqiqiga yangicha yondoshuvning fundamental asosi shunga tayanmog'i lozimki, unda mamlakatimiz rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallasuvi sharoitidagi yangi investitsiya siyosati doirasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb vazifalarini hisobga olgan holda korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlarini tizimli tarzda tadqiq etish asosiy masala qilib qo'yilishi va uning diqqat markazida "investitsion muhit", "investitsion salohiyat", "investitsion faollik", "biznes muhiti" kabi hayotiy belgilovchi omillar mutanosibliklarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish yotishi lozim.

Mazkur yangicha yondoshuv asosidagi tadqiq quyidagilarni hal etishga imkon beradi:



-tizimli yondoshuv asosida "investitsion faollik" tushunchasining yangicha talqinini berish va takomillashgan terminologik apparatini ishlab chiqish;

-O'zbekiston Respublikasida korxona investitsion faolligini ta'minlashga yangicha yondoshish zarurligini belgilovchi omillarni ilmiy tahlil qilish va ularni samarali boshqarish tadbirlarini asoslash;

-tabiiy-iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, korporativ boshqaruv va mahalliy hukumat organlari samarali faoliyati kabi omillar bilan belgilanuvchi imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisobiga korxona investitsion faolligini ta'minlash holatini omilli va natijaviy jihatlarni hisobga olgan holda baholash uslubi-yotini ishlab chiqish;

-iqtisodiy o'sish, modernizatsiya va diversifikatsiya darajasi, ishbilarmonlik muhiti, davlatning biznes va iqtisodiyotning ochiqqligini kompleks hisobga oluvchi koeffitsiyentlar bilan ayrim holda baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali korxona investitsion faolligini samarali boshqarish istiqbollari prognoz qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berish;

-korxona investitsion faolligi va innovatsion rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqib, uni samarali boshqarishning ustuvor omillarini aniqlash imkonini beruvchi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va uning investitsion salohiyatga ta'sirini baholash uslubi-yotini ishlab chiqish;

-investitsion faollikni oshirish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalardan O'zbekistonda foydalanish istiqbollari ilmiy asoslash;

-turli omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida davlat tomonidan korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarishning o'rta va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

Korxona investitsion faolligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlari ilmiy tadqiqiga yangicha yondoshuv bulardan tashqari yana davlatning investitsion salohiyatni boshqarish tizimini mukammallashtirish, uning samarali yo'nalishlarini belgilash orqali investitsion faollik hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ta'minlashga oid qator taklif va tavsiyalarni ham bera olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-sonli Farmoni.
2. "O'zbekiston -2030" Strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. www.lex.uz.
3. Yevropa Ittifoqi, NAFTA va ATEs tarkibiga kiruvchi mintaqalar ulushi. Manba: 2023 yil uchun Jahon banki ma'lumotlari. Elektron manba: <http://databank.worldbank.org> (manbadan foydalanilgan sana: 29.09.2024 y.).
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития / Пер. с нем.: – М.: Прогресс, 1982 г. – 455 с.
5. Hayek F.A. Individualism and Economic Order / F.A. Hayek. – Chicago: Univ. of Chicago Press, 1948. R.324
6. Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. / Под ред. В.Д.Щетинина. – М.: Международные отношения, 1993 г. – 886 с.
7. Кругман П. Географий анд Траде. Самбриге: Тхе МИТ Пресс, 1992; Фужита М., Кругман П., Венаблес А.Ж. Тхе Спатиал Эсономй: Ситиес, Регионс анд Интернационал Траде. – Тхе МИТ Пресс, 2001. П. 384.
8. Бияков О.А. Региональное экономическое пространство: измерение использования потенциала. Автореф. дис. д-ра экон. наук. Кемерово, 2005.-42с.
9. Гранберг А.Г. О программе фундаментальных исследований пространственного развития России. //Регион: экономика и социология, №2, 2009 г. с. 166-178
10. Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории регионального экономического роста и развития // Экономика региона, выпуск 2-й, 2009 г., с.45-62
11. Ломакин В.К. Мировая экономика. Учебник / 4-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012 г. – 671 с.
12. Лисоволик Я.Д. Глобализация: от Великого шелкового пути до ВТО // Российский журнал, 12 января 2007 г.
13. Азоев Г.Л. Конкуренция: анализ, стратегия и практика. – М.: Центр экономики и маркетинга, 1996 г. – 208 с.
14. Жихаревич Б.С., Лимонов Л.Е., Жунда Н.Б. и др. Региональная экономика и пространственное развитие. Учебник в 2-х томах. – М.: Юрайт, 2014 г. Фатхутдинов Р. Глобальная конкурентоспособность: монография. – М.: РИА Стандарты и качество, 2009 г. – 464 с.
15. Савелев Ю.В. Управление конкурентоспособностью региона: от теории к практике. – Петрозаводск: КарНЦ РАН, 2010 г. – 516 с.
16. Гринчел Б.М. Повышение конкурентоспособности территорий как обобщающая задача стратегического планирования. – СПб., 2007 г. – 120 с.
17. Абдусаломов М. О селях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЕУ. – Ташкент, 2015 г.;
18. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организациии производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. – Т.: ФАН, 1992 г.;
19. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. T.:2017;
20. Каюмов А.А. Некоторые аспекты управления в рыночной экономике. Материалы Республиканской Научно-практической конференции. – Москва, 1-2 февраля, 2014г.
21. Садыков А.М. Приоритетные направления повышения конкурентоспособности экономики Узбекистана. Материалы ИВ-Форума экономистов Узбекистана. – Ташкент, 2012



22. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya nazariya, metodika va amaliyot. Monografiya. – T.: “Kamalak”, 2013.
23. Egamberdiev F.T. Iqtisodiyot nazariyasi, o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya nas'hriyoti, 2014 .
24. Гулямов С.С. Анализ проектов - Т.: Молия, 1996
25. Vaxabov A.V.va boshq. Xorijiy investitsiyalar.O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010;
26. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: Moliya, 2003;
27. Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.: 2003.
28. Yuldashev Sh.G. Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi milliy takror ishlab chiqarishning iqtisodiy o'sish va erkinlashtirish omili sifatida. - T.: 2002.
29. Имамов С.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана: Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. – Т., 1993
30. Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2006. 23 b.
31. Nasretidinov S.S. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va samaradorligini oshirish yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.:2008. 24 b.
32. Oblomurodov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2008. 24 b.
33. Дениелс Дж.Д., Радеба Л.Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции.4-е.изд. - М.: Дело ЛТД, 2014. 438с.
34. Доунс Дж., Гудман Дж. Е. Финансово - инвестиционный словарь. 3-е изд. М.:Инфра-М, 2017. - 255с.
35. Сивакова С.Ю. Формирование инвестиционного климата с целью привлечения иностранных инвестиций (На примере Смоленской области) [Текст]: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 - Санкт-Петербург, 2014 - с. 22.
36. Moore M., Schmitz H. Idealizm, realizm and the investment climate in developing countries- Sussex: Institute of Development Studies, 2016 - П.22.
37. Ilyasova B.A. Korxonalarning investitsiya faolligini taminlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2023-yil 11-son.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100